O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA SIYOSATI: OCHIQLIK, OAV VA JAMOATCHILIK NAZORATI

MIGRATION POLICY IN UZBEKISTAN: OPENNESS, MEDIA AND PUBLIC OVERSIGHT

Muallif: Naimjonova Zarnigor Nizom qizi [1]
Affiliyatsiya: Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti, tayanch doktorant [1]
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23277314

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda migratsiya siyosatini amalga oshirish jarayonida ochiqlik, ommaviy axborot vositalari (OAV) va jamoatchilik nazoratining o'rni tahlil qilinadi. Migratsiya jarayonlarining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyati ortib borayotgan sharoitda aholiga ishonchli va o'z vaqtida axborot yetkazish davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Tadqiqotda migratsiya sohasida davlat organlari faoliyatining ochiqligi, OAV bilan hamkorlik, raqamli kommunikatsiya kanallari hamda jamoatchilik bilan muloqot mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Migratsiya agentligining axborot siyosati, mehnat migratsiyasiga oid ma'lumotlarni ommaga yetkazish amaliyoti va migratsiya masalalarini yoritishda professional jurnalistikaning ahamiyati tahlil etiladi. Maqolada ochiq va ishonchli axborot muhitini shakllantirish migrantlarning huquqiy xabardorligini oshirish, noto'g'ri ma'lumotlarning oldini olish hamda davlat institutlariga nisbatan jamoatchilik ishonchini mustahkamlashning muhim sharti ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: Migratsiya siyosati, OAV, ochiqlik, jamoatchilik nazorati, axborot, mehnat migratsiyasi, davlat boshqaruvi

ABSTRACT

This article analyzes the role of transparency, mass media and public oversight in the implementation of migration policy in Uzbekistan. As migration processes become increasingly important in social, economic and political terms, providing citizens with reliable and timely information has become an essential component of effective public administration. The study examines institutional transparency in migration governance, cooperation between state bodies and the media, digital communication channels and mechanisms of public engagement. Particular attention is paid to the information activities of the Migration Agency, public communication on labour migration and the role of professional journalism in covering migration-related issues. The article argues that an open and reliable information environment is essential for improving migrants' legal awareness, preventing misinformation and strengthening public trust in state institutions. The study also highlights the need to further develop systematic communication mechanisms between public authorities, media organizations and civil society in the field of migration governance.

Keywords: Migration policy, mass media, transparency, public oversight, information, labour migration, public administration

Migratsiya zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining murakkab va koʻp qirrali yoʻnalishlaridan biridir. Mehnat migratsiyasi, xalqaro mobillik, fuqarolarning xorijda bandligi, migrantlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qaytib kelgan fuqarolarni reintegratsiya qilish kabi masalalar migratsiya siyosatining asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Shu sababli migratsiyani samarali boshqarish nafaqat huquqiy va institutsional mexanizmlarni, balki zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanishni ham talab etadi.

Oʻzbekistonda migratsiya boshqaruvi tizimini takomillashtirish soʻnggi yillarda davlat siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biriga aylandi. 2024-yil 17-oktabrdagi PF-162-son Farmon asosida migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilishga qaratilgan yangi institutsional yondashuv shakllantirildi. Migratsiya agentligi tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi va tegishli davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi vakolatli organ sifatida faoliyat yuritmoqda [Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, 2024: 1]. Bunday sharoitda davlat organlari faoliyatining ochiqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki migratsiya bilan bogʻliq qarorlar, xorijda ishga joylashish imkoniyatlari, mavjud vakansiyalar, kasbiy tayyorgarlik, huquqiy talablar va migrantlarning huquqlariga oid ma'lumotlarning oʻz vaqtida yetkazilishi fuqarolarning xavfsiz va qonuniy migratsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Oʻzbekiston qonunchiligida davlat organlari faoliyatining ochiqligi va jamoatchilik nazoratini ta'minlash boʻyicha muhim huquqiy mexanizmlar shakllantirilgan [Oʻzbekiston Respublikasi, 2014: 1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli, institutsional, qiyosiy va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Migratsiya siyosatining axborot-kommunikatsion jihatlarini oʻrganishda Oʻzbekiston Respublikasining migratsiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlari, davlat organlarining rasmiy axborotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda migratsiya masalalarini yoritishga oid ilmiy va tahliliy materiallar tahlil qilindi.

Tadqiqotning institutsional yondashuvi migratsiya siyosatida davlat organlari, OAV, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlarning oʻzaro munosabatlarini aniqlash imkonini beradi. Kontent-tahlil orqali esa migratsiya masalalarining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi, axborotning mazmuni va jamoatchilikka yetkazilish mexanizmlariga baho berildi.

Migratsiya siyosatida ochiqlikning institutsional ahamiyati. Davlat boshqaruvida ochiqlik fuqarolarning davlat organlari faoliyati toʻgʻrisida axborot olish imkoniyatini kengaytirish bilan birga, boshqaruv qarorlarining legitimligi va samaradorligini oshiruvchi omil sifatida namoyon boʻladi. Migratsiya sohasida bu masala yanada muhimdir. Chunki migrantlar koʻpincha xorijiy davlatlarning mehnat bozori, huquqiy talablari va ishga joylashish tartiblari toʻgʻrisidagi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Migratsiya sohasida davlat organlarining ochiqligi fuqarolarni xorijda qonuniy ishga joylashish imkoniyatlari haqida xabardor qilish, xorijiy davlatlarning migratsiya va mehnat qonunchiligiga oid ma'lumotlarni muntazam taqdim etish, migratsiya xizmatlari va ishga joylashish jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, migrantlarning murojaatlariga tezkor munosabat bildirish hamda davlat siyosati natijalari yuzasidan jamoatchilikka muntazam axborot berish orqali namoyon boʻladi. Ochiqlik faqat ma'lumotni e'lon qilish bilan cheklanmasligi kerak. Axborotning tushunarli, tezkor, ishonchli va fuqarolar uchun foydalanishga qulay shaklda taqdim etilishi ham muhimdir. Shu sababli davlat organlarining rasmiy kommunikatsiya

siyosati migratsiya boshqaruvining mustaqil va muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Ommaviy axborot vositalari davlat va jamiyat oʻrtasidagi kommunikatsiyaning muhim instituti hisoblanadi. Migratsiya sohasida OAVning vazifasi faqat rasmiy xabarlarni tarqatishdan iborat emas. OAV migratsiya jarayonlarining ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish, migrantlarning muammolarini yoritish, davlat organlariga jamoatchilik savollarini yetkazish va aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ham muhim rol oʻynaydi. Xalqaro mehnat tashkiloti migratsiya, adolatli yollash va majburiy mehnatga oid media materiallarida jurnalistlarning migratsiya masalalarini xolis va toʻgʻri yoritishdagi ahamiyatiga e'tibor qaratadi [ILO, 2022: 7]. Shu jihatdan Oʻzbekiston OAVlari oldida uchta muhim vazifa turadi: axborot berish, tahlil qilish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish. “Xalq soʻzi” va “Народное слово” kabi nufuzli nashrlar koʻp yillik professional tajribasi orqali davlat siyosati, islohotlar va jamiyatdagi muhim jarayonlarni keng jamoatchilikka yetkazishda oʻziga xos jurnalistik maktabni shakllantirgan. Migratsiya mavzusida ham professional OAVning ishtiroki davlat siyosatining mazmunini tushuntirish, jamoatchilik savollarini shakllantirish va muammolarga ekspertlik nuqtayi nazaridan baho berish imkonini kengaytiradi.

Bugungi kunda migratsiya axborot makoni an'anaviy OAV bilan cheklanmaydi. Rasmiy veb-saytlar, Telegram kanallari, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalar migrantlar uchun tezkor axborot manbalariga aylanmoqda. Migratsiya masalalarida raqamli kommunikatsiyaning asosiy afzalligi tezkorlikdir. Xorijga chiqishga tayyorlanayotgan fuqaro ish oʻrni, hujjatlar, imtihonlar, huquqiy maslahat yoki favqulodda vaziyatlar haqida qisqa vaqt ichida ma'lumot olishi mumkin. Biroq raqamli axborot muhitining rivojlanishi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Migratsiya mavzusidagi yolgʻon ma'lumotlar, tasdiqlanmagan ish takliflari, firibgarlik sxemalari va notoʻgʻri talqinlar fuqarolar uchun real xavf tugʻdirishi mumkin. Shu sababli rasmiy manbalar bilan ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oʻrtasidagi farqni tushuntirish va mediasavodxonlikni oshirish davlat axborot siyosatining muhim yoʻnalishiga aylanmoqda deb hisoblayman. Migratsiya agentligining raqamli platformalar orqali imtihonlar, ishga joylashish va boshqa xizmatlar boʻyicha axborot berishi davlat xizmatlarida raqamli kommunikatsiyaning shaffoflikni ta'minlashdagi imkoniyatlarini koʻrsatadi [Migratsiya agentligi, 2026: 2].

Jamoatchilik nazorati davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytirishning muhim mexanizmlaridan biridir. Migratsiya sohasida bunday nazorat davlat organlari faoliyatini baholash, fuqarolar murojaatlarini oʻrganish, OAV materiallari orqali muammolarni aniqlash va jamoatchilik muhokamalarini tashkil etish orqali amalga oshirilishi mumkin. Jamoatchilik nazoratining samaradorligi uchta shartga bogʻliq deb hisoblayman:

birinchidan, davlat organlari zarur ma'lumotlarni ochiq taqdim etishi kerak;

ikkinchidan, OAV va fuqarolik jamiyati vakillari ushbu ma'lumotlarni mustaqil tahlil qila olishi lozim;

uchinchidan, aniqlangan muammolar yuzasidan davlat organlari javob qaytarishi va zarur hollarda tegishli choralarni koʻrishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, OAV davlat boshqaruvi va jamoatchilik oʻrtasidagi “axborot koʻprigi” vazifasini bajaradi. Mazkur mexanizm migratsiya sohasida ayniqsa muhim, chunki migratsiya qarorlari bevosita fuqarolarning hayoti, bandligi, daromadi va huquqiy xavfsizligiga ta'sir qiladi.

Migratsiya siyosatining axborot ta'minotini takomillashtirish istiqbollari. Oʻzbekistonda migratsiya boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish jarayonida axborot siyosatini rivojlantirish boʻyicha bir qator yoʻnalishlarni taklif etish mumkin. Birinchidan, migratsiya sohasidagi rasmiy ma'lumotlarni yagona va qulay axborot tizimida birlashtirish maqsadga muvofiq. Fuqaro ishga joylashish, kasbiy tayyorgarlik, huquqiy maslahat va xorijdagi vakolatxonalar bilan bogʻliq ma'lumotlarni yagona raqamli muhitdan olishi kerak. Ikkinchidan, OAV bilan davlat organlari oʻrtasidagi muntazam professional muloqotni kuchaytirish zarur. Migratsiya mavzusida jurnalistlar uchun maxsus seminarlar, mediatreninglar va ekspertlik platformalarini tashkil etish ijobiy natija berishi mumkin. Uchinchidan, migratsiya jurnalistikasida yagona professional va etik yondashuvlarni rivojlantirish lozim. Migrantlarni faqat iqtisodiy resurs sifatida emas, balki huquq va manfaatlarga ega inson sifatida tasvirlash zamonaviy migratsiya kommunikatsiyasining muhim talabidir. Toʻrtinchidan, davlat organlari tomonidan jamoatchilik savollariga tezkor javob berish mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Bu notoʻgʻri axborotlarning tarqalishini kamaytiradi va davlat institutlariga nisbatan ishonchni oshiradi. Beshinchidan, migratsiya siyosatini yoritishda ma'lumotlarga asoslangan jurnalistikani rivojlantirish muhim. IOMning Oʻzbekiston boʻyicha migratsiya vaziyatiga oid hisobotlari migratsiya oqimlari, mehnat migratsiyasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini ochiq ma'lumotlar asosida tahlil qilish imkoniyatini koʻrsatadi [IOM, 2025: 4].

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekistonda migratsiya siyosatining samaradorligi faqat huquqiy va institutsional mexanizmlarning rivojlanganligi bilan belgilanmaydi. Mazkur siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida ochiq, ishonchli va tezkor axborot kommunikatsiyasi ham shakllanishi lozim. OAV migratsiya siyosatida davlat va jamiyat oʻrtasidagi muloqotni ta'minlovchi muhim institut sifatida namoyon boʻlishi zarur. Uning vazifasi rasmiy axborotni tarqatish bilan cheklanmasdan, migratsiya jarayonlarini tahlil qilish, migrantlarning muammolarini yoritish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va aholining huquqiy xabardorligini oshirishdan iborat.

Oʻzbekiston sharoitida migratsiya boshqaruvi tizimining institutsional takomillashuvi bilan bir qatorda uning axborot-kommunikatsion komponentini ham rivojlantirish zarur deb hisoblayman. Davlat organlari, professional OAV, ekspertlar va fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasidagi hamkorlik migratsiya siyosatining ochiqligi va hisobdorligini kuchaytiradi. Shunday qilib, ochiqlik va professional axborot siyosati migratsiya boshqaruvining qoʻshimcha elementi emas, balki uning samaradorligini ta'minlovchi institutsional mexanizmlardan biriga aylanadi. Bu jarayonda “Xalq soʻzi” kabi professional nashrlarning tajribasi milliy jurnalistikada davlat siyosatini xolis, mas'uliyatli va tahliliy yoritishning muhim namunasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi. “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi Qonun. OʻRQ-369-son, 05.05.2014. https://lex.uz/docs/-2381133.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-6247-son Farmon, 16.06.2021. https://lex.uz/docs/-5459107.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti. “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son Farmon, 14.06.2021. https://lex.uz/docs/6066512.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Migratsiya jarayonlarini boshqarish tizimini isloh qilishga oid ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-162-son Farmon, 17.10.2024. https://lex.uz/docs/-7170458.
5. International Labour Organization. Media-Friendly Glossary on Migration, Fair Recruitment and Forced Labour – Uzbekistan Edition. Geneva, 2022. – P. 1–75. https://www.ilo.org/publications/media-friendly-glossary-migration-fair-recruitment-and-forced-labour.
6. International Organization for Migration. Uzbekistan — Migration Situation Report. Tashkent, 2025. – P. 1–20. https://dtm.iom.int/reports/uzbekistan-migration-situation-report-quarterly-compilation-october-december-2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Migratsiya agentligi. Rasmiy axborot va ochiqlik materiallari. 2026. https://gov.uz/oz/migration.